

# **GLOBALASHUV SHAROITIDA JAHON MOLIYA TIZIMI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403830>

**Haydarov Sodiqjon Hamzayevich**  
TDIU, BIA-71 guruh talabasi  
**Rahimova Nozimaxon Jahongirovna**  
TDIU “Moliya” kafedrasi o’qituvchisi

**Annotatsiya.** Bu maqolada jahon moliya tizimining ahamiyati, uning tashkil topishi va unda yuz beradigan muamolar va takliflar chuqur o’rganildi. Shu bilan birgalikda, Jahon moliya tizimining globallashuv bosqichdagi, uchrab turadigan iqtisodiy va siyosiy qarashlar ham kerakli darajada yoritilgan.

**Kalit so’zlar.** Moliyaviy tizimlar, investitsiya va investitsion g’oyalalar iqtisodiy harakatlar, nazorat qilish tartibga solish rejalashtirish, sarmoya kiritish xalqaro bozorlar va xalqaro muamolar.

Jahon moliya tizimi – bu moliya tizimidagi huquqiy kelishuvlar shu bilan birgalikda, turli xil investitsion g’oyalarni nazorat qilib va ularni moliyalashtirish orqali, rasmiy va norasmiy iqtisodiy harakatlarni butun dunyo bo’ylab nazorat qiluvchi manba. Bu tizim 19-asr oxirida iqtisodiy globallashuvning birinchi zamonaviy to’lqini davrida paydo bo’lganidan beri uning evolyutsiyasi xalqaro bozorlarning shaffofligi, tartibga solinishi va samaradorligini oshirishga qaratilgan[1]. Bu tizim markaziy banklar, ko’p tomonlama shartnomalar va hukumatlararo tashkilotlarning tashkil etilishi bilan ajralib turadi[2]. Global nuqtai nazardan olib qarasak, moliyaviy tizimlarga: Xalqaro Valyuta Jamg’armasi, Markaziy Banklar, Davlat G’aznachiligi, va Valyuta organlari kiradi. Aytishimiz mumkinki, bu tizimlar jismoniy shaxslarga va moliyaviy muassasalarga tejash, sarmoya kiritish, risklarni boshqarish va tranzaktsiyalarni samarali boshqarish va ularni amalga oshirishga imkon beradi. Hozirgi vaqtga kelib bu tizimda ham turli-tuman xalqaro muammolar mavjud bu ko’pincha xalqaro biznes bilan bog’liq masalan;

- Qarz muammosi
- Global tartibga solish muammosi
- To’lov balansnining joriy hisobdagi nomutanosibligi
- Raqamli moliyani rivojlantirish bilan bog’liq bo’lgan muammolar
- Xalqaro banklardagi norasmiy iqtisodiy harakatlar

Global moliyani isloh qilish jarayonida aytishimiz mumkinki, 2023-yil May oyida “BMT” Bosh kotibi yuqoridagi muammolar bo'yicha o'z takliflarini berib o'tdi unda global iqtisodiy boshqaruvdagi tizimni ishonchli hamda mustahkam tenglikni ta'minlash bo'yicha o'z islohotlari bilan o'rtoqlashdilar. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon Banki boshqaruvdagi ovozini oshirish orqali global moliya tizimini tartibga solish asosiy maqsad sifatida ilgari surildi.[3]

Turli-tuman moliyaviy bozorlarda vujudga kelgan qarz muammosi ham bartaraf etildi jumladan, qarz arxitekturasidagi uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan muammolar ham bartaraf etildi. Qarz muammosini oldinni olishning, asosiy qismi bu ko'proq shaffoflik va kreditni yaxshiroq va halol belgilash, qarzlarni boshqarish salohiyati mustahkamlash uchun mamlakatlarga takomillashtirilgan qarz shartnomalari taklif qilindi.

Bugungi kunga kelib jahon moliya tizimining asosiy tayanchi bo'lishga ulgurgan faoliyat bu – Moliyaviy Institutlar hisoblanadi. Kreditorlar va Qarz oluvchilarni birlashtirishda moliyaviy institutlar muhum rol o'ynaydi[4]. Bu Institutlar;

- Moliyaviy Agentliklar
- Pay Fondlar
- Pensiya Fondlar
- Venture (venchur) Kapitali
- Moliya Tizimining bir qismi bo'lgan boshqa institutlar ham kiradi

Albatta, bu operatsiyalar orqali moliya tizimining to'lov balans qismi rivojlanadi shu bilan birgalikda, moliyaviy xizmatlar uchun moliya tizimining muhum tarkibiy qismi bo'lib qoladi[5]. Umuman olganda, Moliya tizimining ahamiyati nafaqat moliyaviy institutlar emas balki uning yuqori iqtisodiy o'sishiga olib keladigan jamg'armalar va investitsiya xarajatlarini rag'batlantirishdagi roldan kelib chiqadi. Sababi, moliya tizimi, investitsiyalar va jamg'armalarga sarflanadigan xarajatlar samarali amalga oshirishni kafolatlaydi. Moliya tizimining yana bir

tayanchi mavjud bu pul-kredit siyosati hisoblanadi, bu siyosat orqali moliya tizimi mahaliy va xalqaro iqtisodiyotning barqarorligiga hissa qo'shadi.

Shuni ayta olamanki, Bugungi kunga kelib jahon moliya tizimidagi islohotlar keng qamrovda qo'llaniliyapti. Bu tizim asosida rivojlangan davlatlar va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida turli-tuman huquqiy shartnomalar shu bilan birgalikda, investitsion g'oyalarni rejalashtirish va ularni nazorat qilish orqali davlatlar o'zlarining moliyaviy hamda iqtisodiy sohalarini yanada rivojlantirib kelgusida vujudga keladigan turli-tuman moliyaviy inqirozlarni oldini olish kabi operatsiyalarni amalga oshirib borishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://www.studysmarter.co.uk/explanations/macroeconomics/economics-of-money/global-financia>
2. <https://www.investopedia.com/terms/f/financial-system.asp>(Moliya tizimi: ta'rifi, turlari va bozor tarkibiy qismlari)
3. <https://www.imf.org/en/Publications/GFSR>
4. Global moliya tizimining birinchi nashri
5. Kennet A. Froot (muallif), Duayt B. Kreyn (muharrir), Skott P. Meyson (Hissyor)